

“TASDIQLAYMAN”



O‘zbekiston Respublikasi  
Energetika vaziri

J. Mirzamahmudov

2024-yil 29 04

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi markaziy apparati huzuridagi Elektr energetikasi tarmog‘ini isloh qilish bo‘yicha loyiha ofisida mavjud vakant lavozimga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyasining  
36-son bayoni

2024-yil 29 04

Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:** J. Mirzamahmudov – Energetika vaziri, Tanlov komissiyasi raisi

**Qatnashganlar:** Vazir o‘rinbosarlari, vazirning rejim va komplayens bo‘yicha maslahatchisi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi vakili, Tanlov komissiyasi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

#### KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi markaziy apparati huzuridagi Elektr energetikasi tarmog‘ini isloh qilish bo‘yicha loyiha ofisida mavjud vakant lavozim uchun e‘lon qilingan tanlovning suhbat bosqichini o‘tkazish to‘g‘risida**

*(Mirzamahmudov, Mamatkarimov, Shukurov, Fayziyev, Mirzamahmudov)*

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) bilan kelishgan holda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi markaziy apparati va tashkiliy tuzilmasidagi tashkilotlarda mavjud vakant lavozimlariga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi” (keyingi o‘rinlarda - Tartib) talablariga muvofiq vazirlik markaziy apparati huzuridagi **Elektr energetikasi tarmog‘ini isloh qilish bo‘yicha loyiha ofisi Xalqaro hamkorlik xizmatida 1-toifali mutaxassis** vakant lavozimiga ishga qabul qilish uchun Agentlikning <https://vacancy.argos.uz/> platformasi orqali e‘lon qilingan tanlovda 50 ta murojaat kelib tushgan.

Tanlovning 1-bosqichi bo‘yicha nomzodlarning o‘rnatilgan malaka talablariga mosligi tekshirildi, shundan so‘ng, muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar tomonidan tanlovning 2-bosqichida Agentlikda test sinovlari topshirildi.

Tanlovning test sinovlari bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan bir nafar nomzod (A. Abdumalikov) tanlovning suhbat bosqichiga taklif qilindi.

Tanlovning suhbat bosqichi Energetika vazirligi binosida ochiq muloqot shaklida bo'lib o'tdi.

Suhbat bosqichida Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodga tanlagan vakant lavozimi faoliyati bilan bog'liq savollar berildi. Shundan so'ng nomzodning javoblari o'rnatilgan tartibda muhokama qilinib, bilim saviyasi, vakant lavozimga mosligi, strategik fikrlashi va umumiy dunyoqarashi baholandi.





Bunda, Komissiya a'zolari tomonidan mazkur vakant lavozim uchun nomzod, tegishli tashkilotlar bilan kelishilishi lozimligini inobatga olib, vazirlik markaziy apparati huzuridagi **Neft-gaz tarmog'ini isloh qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha loyiha ofisi Korporativ munosabatlar xizmati 1-toifali mutaxassisi** vakant lavozimiga ishga qabul qilish tavsiya etildi.





Komissiya a'zolarining tavsiyalarini ko'rib chiqib va takliflarini inobatga olib, Tanlov komissiyasi **qaror qiladi:**

1. Vazirlik markaziy apparati huzuridagi Neft-gaz tarmog'ini isloh qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha loyiha ofisi Korporativ munosabatlar xizmati 1-toifali mutaxassisi lavozimiga Alisher Xabibullo o'g'li Abdumalikov nomzodi ma'qullansin.

2. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Z.Fayziyev) tanlangan nomzod bilan o'rnatilgan tartibda mehnat munosabatlariga oid hujjatlarni imzolash va lavozimga tayinlash bo'yicha ishlarni amalga oshirsin.

3. Ushbu yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish vazir maslahatchisi D.Shukurov zimmasiga yuklansin.

 B. Mamatkarimov  
 U. Mamadaminov  
 D. Shukurov  
 A. Raupov

 Sh. Fayzulloyev  
 Z. Fayziyev  
 F. Sharipov  
 R. Xakimov